


BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI



Научный вестник Бухарского государственного университета
Scientific reports of Bukhara State University

5/2025

E-ISSN 2181-1466



9 772181 146004

ISSN 2181-6875



9 772181 687004



@buxdu_uz



@buxdu1



@buxdu1



www.buxdu.uz

5/2025

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI
SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК БУХАРСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА

Ilmiy-nazariy jurnal

2025, № 5, may

Jurnal 2003-yildan boshlab **filologiya** fanlari bo'yicha, 2015-yildan boshlab **fizika-matematika** fanlari bo'yicha, 2018-yildan boshlab **siyosiy** fanlar bo'yicha, **tarix** fanlari bo'yicha 2023-yil 29-avgustdan boshlab O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar Vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo'lgan zaruriy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2000-yilda tashkil etilgan.

Jurnal 1 yilda 12 marta chiqadi.

Jurnal O'zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2020-yil 24-avgust № 1103-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Muassis: Buxoro davlat universiteti

Tahririyat manzili: 200117, O'zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy.

Elektron manzil: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

TAHRIR HAY'ATI:

Bosh muharrir: Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bosh muharrir o'rinbosari: Rasulov To'liqin Husenovich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor

Mas'ul kotib: Shirinova Mexrigiyo Shokirovna, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Kuzmichev Nikolay Dmitriyevich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor (N.P. Ogaryov nomidagi Mordova milliy tadqiqot davlat universiteti, Rossiya)

Danova M., filologiya fanlari doktori, professor (Bolgariya)

Margianti S.E., iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Indoneziya)

Minin V.V., kimyo fanlari doktori (Rossiya)

Tashqarayev R.A., texnika fanlari doktori (Qozog'iston)

Mo'minov M.E., fizika-matematika fanlari nomzodi (Malayziya)

Mengliyev Baxtiyor Rajabovich, filologiya fanlari doktori, professor

Adizov Baxtiyor Rahmonovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Abuzalova Mexriniso Kadirovna, filologiya fanlari doktori, professor

Amonov Muxtor Raxmatovich, texnika fanlari doktori, professor

Barotov Sharif Ramazonovich, psixologiya fanlari doktori, professor, xalqaro psixologiya fanlari akademiyasining haqiqiy a'zosi (akademigi)

Baqoyeva Muhabbat Qayumovna, filologiya fanlari doktori, professor

Bo'riyev Sulaymon Bo'riyevich, biologiya fanlari doktori, professor

Jumayev Rustam G'aniyevich, siyosiy fanlar nomzodi, dotsent

Djurayev Davron Raxmonovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Durdiyev Durdimurod Qalandarovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Olimov Shirinboy Sharofovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Qahhorov Siddiq Qahhorovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Umarov Baqo Bafoyevich, kimyo fanlari doktori, professor

Murodov G'ayrat Nekovich, filologiya fanlari doktori, professor

O'rayeva Darmonoy Saidjonovna, filologiya fanlari doktori, professor

Navro'z-zoda Baxtiyor Nigmatovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Hayitov Shodmon Ahmadovich, tarix fanlari doktori, professor

To'rayev Halim Hojiyevich, tarix fanlari doktori, professor

Rasulov Baxtiyor Mamajonovich, tarix fanlari doktori, professor

Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Quvvatova Dilrabo Habibovna, filologiya fanlari doktori, professor

Axmedova Shoira Nematovna, filologiya fanlari doktori, professor

Bekova Nazora Jo'rayevna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Amonova Zilola Qodirovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Hamroyeva Shahlo Mirjonovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Nigmatova Lola Xamidovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Boboyev Feruz Sayfullayevich, tarix fanlari doktori

Jo'rayev Narzulla Qosimovich, siyosiy fanlar doktori, professor

Xolliyev Askar Ergashovich, biologiya fanlari doktori, professor

Artikova Hafiza To'ymurodovna, biologiya fanlari doktori, professor

Hayitov Shavkat Ahmadovich, filologiya fanlari doktori, professor

Qurbonova Gulnoz Negmatovna, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Ixtiyarova Gulnora Akmalovna, kimyo fanlari doktori, professor

Rasulov Zubaydullo Izomovich, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Mirzayev Shavkat Mustaqimovich, texnika fanlari doktori, professor

Samiyev Kamoliddin A'zamovich, texnika fanlari doktori, dotsent

Esanov Husniddin Qurbonovich, biologiya fanlari doktori, dotsent

Zaripov Gulmurot Toxirovich, texnika fanlari nomzodi, professor

Jumayev Jura, fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent

Klichev Qybek Abdurasulovich, tarix fanlari doktori, dotsent

G'aybulayeva Nafisa Izattullayevna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

MUNDARIJA *** СОДЕРЖАНИЕ *** CONTENTS		
ADABIYOTSHUNOSLIK *** LITERARY CRITICISM *** ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ		
Аминова М.Д., Хусанова С.Х.	Вечные темы в поэзии А.А.Ахматовой разных периодов творчества	4
Shahobova S.B., Khallieva G.I.	Similarities and differences in the works of Abdullah Qahhor and O. Henry	10
G'aniyeva O.X., Ashurova N.A.	“MR. Potter” romanida bilvosita xarakterlash va uning badiiy-estetik vazifasi	14
Atamurodova F.T.	Origin of the novel in european literature	19
Barotova M.B.	Sinkretizmning adabiy tamoyil sifatida qo'llanishi	23
Berdiyeva S.U.	“Shum bola” asarida milliy yumorning ifodalanishi va uning ingliz tilidagi tarjimada adekvatligi	27
Ilkhomova U.Dj.	The influence of feminist literature on teachers' portraits: a comparative analysis of "The color purple" and "Diary of the freedom writers"	31
Jurayeva I.A., Po'lotova G.M.	Sofoklning “Shoh Edip” asarida delakunizatsiya	35
Ochilov U.S.	Magical realism and memory in Salman Rushdie's «Victory city»	39
Qudratova S.O.	The concept of loneliness in “Why i live at the p.o.” by Eudora Welty	43
Raxmatova S.O., Ro'zigul S.Q.	O'tkir Hoshimov asarlarining rus tiliga tarjimasida milliy mentalitet va madaniy realiyalarning ifoda topishi	47
Sadikova D.N.	Den Braunning “Farishtalar va iblislar”(“Angels and demons”) asaridagi ramzlarning intertekstual tahlili	51
Ochilov U.S.	Fear and imagination in american children's and horror literature	56
Safarova Z.K., Isroilov D.S.	Amirqul Po'ltan asarlarida milliy g'oyalarning ifodalanishi	64
Saidova Sh.Sh., Kilicheva M.R.,	The representation of historical lexicon in the english translation of “Yulduzli tunlar” (starry nights)	68
Salimova H.H.	The representation of the mother figure and national identity in Abdulla Qodiriy's novels	72
Sharipova D.Sh.	Specific characteristics and aspects of symbols in literature	78
Sharipova M.B.	“Qiz tanlash” va “Unashtirish” marosimining “Alpomish” dostonidagi badiiy talqini	85
Temirova Dj.Kh.	Typological convergence of plot-image systems in russian and uzbek children's game folklore	89
Xalimova N.N.	Sharq va g'arb romanchiligi: O'rta Osiyo va Yevropa adabiyotida tasvir va talqin	99
Yuldosheva M.A.	XX asr 30 -yillar o'zbek matbuotining asosiy tamoyillari	103
Адилова Д.К.	Отличительные особенности женских образов в русской узбекской литературе	107
Amanullaeva K.M., Alizhonova O.A.	Concept and conceptosphere problems and artistic concept in the text structure	112

Боймуродов Б.Қ.	Таҳлили ғоявии ашъори зулфия	116
Кенджаева Г.В., Убайдуллаева Ф.Е.	Самопожертвование как главная тема в рассказах О. Генри	121
Норқўчқоров Ф.Ш.	Ринди Ҳофиз ва аҳамияти он	124
Темирова Д.Қ.	Природа и символизм: как харди использует природный мир в тесс из рода Д’Эрбервиллей»	129
Боймуродов Б.Қ.	Инъикоси таърих дар ашъори асад Гулзодаи Бухорой	133
Холматов М.О.	Танқиди руҳониёни давр дар ғазалиёти Ҳофизии Шерозӣ	137
Чориёрова Н.Т., Хусанова С.Х.	Художественный мир Марины Цветаевой	142
Файзуллаева Р.А.	Муҳаммад Расул Мирзо девонининг жанрий таркиби	148
Холматов М.О.	Корбурди санъати муболиға дар достони “Рустам ва Сўҳроб”-и Абулқосими Фирдавсӣ	153
Avazova L.B.	Harold Lambning "Babur the tiger" va Pirimqul Qodirovning "Yulduzli tunlar" asarlaridagi tarixiy va badiiy o‘xshashliklar	158
Bozorova U.Q.	A.S. Pushkin asarlaridagi xorijiy kiritmalar tavsifi	163
Гаффарова О.Б.	Гендерная тема в современной женской драматургии (Я. Пулинович О.Мухина и др.)	167
Рахимова М.Ш.	Тема «маленького человека» в произведении Л. Улицкой «Народ избранный»	171
MATNSHUNOSLIK VA MANBASHUNOSLIK *** TEXTOLGY AND LITERARY SOURCE STUDY *** ТЕКСТОЛОГИЯ И ЛИТЕРАТУРНОЕ ИСТОЧНИКОВЕДЕНИЕ		
Kalandarova F.A.	“Daxmai shohon”ning nusxalari va ularning o‘rganilishi	175
JURNALISTIKA *** JOURNALISM*** ЖУРНАЛИСТИКА		
Marziyaev J.K.	Mediada ekologik mavzularni yoritishning nazariy-metodologik tahlili	181
Askarova M.G‘.	Mahalliy “Bolajon” va “Aqlvoy” telekanallaridan efirga uzatilgan multfilmlarda ijtimoiy muhandislikning o‘rni	185
NAVOIY GULSHANI		
Amonova Z.Q., Asxatova D.A.	Aytib malak ichra darsi himmat	189
Olimova D.K.	Fayz shahristoni sayrig‘a topar darvoza ruh	192
TARIX *** HISTORY *** ИСТОРИЯ		
Shukurillayev Y.A.	Amir Nasrulloxon davridagi “Buxoro davlatining harbiy nizomi” – amirlikning harbiy tarixiga oid muhim manba	194
Beshimov M.K.	Munzim ijodida adolat va ma’rifatparvarlik g’oyalari	200
Bo’stonova Z.B.	Buxoro vohasi xorijiy sayyohlar nigohida	204
Buriyev Z.T.	XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida turkiston o‘lkasining boshqaruv siyosati va uning mohiyati	209

Narziyeva M.A.	Turkistonda faoliyat yuritgan qishloq xo'jalik maktablari tarixidan (XIX asr oxiri – XX asr boshlari)	214
Orunbayev A.	1908-yilgi saylovlar doirasida ittihad va taraqqiyot jamiyatining siyosiy dasturi	219
Shukurillayev Y.A.	Buxoro amirligi qo'shbegisi kanselyariyasi fondi hujjatlari – amirlikning qo'shin va harbiy ishiga oid muhim manba	227
Rajabov O.I.	Bahovuddin Naqshbandning ma'naviy-ilmiy merosi xorijiy tadqiqotchilar talqinida	234
Rizayev B.N.	The soviet collectivization project	238
Sayfullayev B.D.	O'zbekiston va Hindiston o'rtasidagi madaniy munosabatlar: adabiy aloqalar misolida	244
Sharopov D.R.	XVIII – XIX asrlarda Buxoro amirligi savdo majmualarining xalqaro tijoratdagi o'rni	248
Asadov M.O'.	Nogironligi bo'lgan kishilar orasida jismoniy madaniyat va sportning rivojlanish tarixi	252
Эргашев Ж.Ю., Тоҳирова М.Т.	Қорақўл териси савдоси ва унинг минтақавий ҳамда халқаро бозорлардаги ўрни	256
FALSAFA VA HUQUQ, SIYOSATSHUNOSLIK *** PHILOSOPHY, LAW AND POLITICAL SCIENCES *** ФИЛОСОФИЯ, ПРАВО И ПОЛИТОЛОГИЯ		
Abdurakhimov H.S.	O'zbekiston va Avstriya respublikalari o'rtasidagi diplomatik va iqtisodiy hamkorlikning huquqiy asoslari o'rnatilishi	262
Sotvoldiyev J.S.	Markaziy Osiyo xavfsizligini ta'minlashda O'zbekistonning konstruktiv diplomatik yondashuvi	268
Давлатова С.Т.	Ўзбекистон ва Корея: миллатлараро муносабатларда янги стратегик кадам	272
Мехмет Э.Т., Алиева Т.	Туризм как фактор «мягкой силы» во внешней политике: на примере Турции и Узбекистана	278
Найимов О.М.	Кўп томонлама дипломатиянинг нуфузли минбари: парламентлараро иттифок ва сиёсий мулоқот	284
IQTISOD *** ECONOMY *** ЭКОНОМИКА		
Axmatova M.E. Niyozov A.Q.	Inflyatsiya darajasi eng yuqori bo'lgan mamlakatlar — tarix va bugun	289
PEDAGOGIKA *** PEDAGOGY *** ПЕДАГОГИКА		
Nazarov S.Sh.	A comparative study of the structural-semantic features of english and uzbek word combinations	294
SAN'AT *** ART *** ИСКУССТВОВЕДЕНИЕ		
To'ychiyeva S.S.	Boqiy qadriyatlar beshigi	298

INFLYATSIYA DARAJASI ENG YUQORI BO'LGAN MAMLAKATLAR — TARIX VA BUGUN

Axmatova Mohigul Ergash qizi,

Buxoro davlat universiteti turizm va mehmonxona xo'jaligi kafedrasida dotsenti, PhD

axmatovamohigul@gmail.com

Niyozov Asad Qosimovich,

Buxoro xalqaro universiteti 1-bosqich magistranti

Annotatsiya. Maqolada iqtisodiyot tarixida giperinflyatsiya holatlari ko'p bor yuz berganligi, ammo bu kabi holatlar hozirgi kunda ham turli mamlakatlarda ro'y berayotganligi va pulning qadrsizlanishi, aynan hozirgi xalqaro vaziyat fonida yanada dolzarb mavzuga aylanayotganligi kabi masalalar bo'yicha ma'lumotlar berilgan. Ishlab chiqarish rivojlanishida yuzaga keladigan nomutanosibliklar sababli tovarlar va xizmatlar bahosining umumiy yoki to'xtovsiz o'sishi va natijada pul muomalasi qonunining buzilishi oqibatida pul birligining qadrsizlanishiga inflyatsiya deb aytiladi.

Kalit so'zlar: inflyatsiya, milliy valyuta, giperinflyatsiya, moliyaviy inqiroz, narx, pul-kredit, deflyatsiya siyosati.

COUNTRIES WITH THE HIGHEST INFLATION RATES - HISTORY AND TODAY

Abstract. Our article provides information on the fact that hyperinflation has occurred many times in the history of economics, but such cases are still occurring in different countries today, and the depreciation of money is becoming an even more relevant topic, especially against the background of the current international situation. Inflation is a general or sustained increase in the prices of goods and services due to imbalances in the development of production and, as a result, a depreciation of the currency due to a violation of the law of monetary circulation.

Keywords: inflation, national currency, hyperinflation, financial crisis, price, monetary policy, deflationary policy.

СТРАНЫ С САМЫМ ВЫСОКИМ УРОВНЕМ ИНФЛЯЦИИ - ИСТОРИЯ И СОВРЕМЕННОСТЬ

Аннотация. В нашей статье приводится информация о том, что гиперинфляция происходила много раз в истории экономики, но такие случаи происходят в разных странах и сегодня, а обесценивание денег становится еще более актуальной темой, особенно на фоне современной международной обстановки. Инфляция — всеобщий или устойчивый рост цен на товары и услуги, обусловленный диспропорциями в развитии производства и, как следствие, обесцениванием денежной единицы вследствие нарушения закона денежного обращения.

Ключевые слова: Инфляция, национальная валюта, Гиперинфляция, финансовый кризис, цена, денежно-кредитная политика, дефляционная политика.

Inflyatsiya-atamasiga bir qancha ta'rif berish mumkin. Umuman olganda, inflyatsiya bu pulning qadrsizlanishi hisoblanadi. Bu ta'rifning mazmun-mohiyatini yanada chuqurroq ifodalash maqsadida iqtisodiyot fanlari nomzodi I.Sayfiddinovning so'zlarini keltirib o'tamiz:

Inflyatsiya – bu, ijtimoiy ishlab chiqarish rivojlanishida yuzaga keluvchi disproporsiyalar sababli tovarlar va xizmatlar bahosining umumiy yoki to'xtovsiz o'sishi natijasida pul muomalasi qonunining buzilishi va pul birligining qadrsizlanishidir.

Muomalada qog'oy pullar va tanga pullarning mavjudligi inflyatsiyani vujudga keltiruvchi iqtisodiy kategoriyalardan biri hisoblanadi.

“Inflyatsiya” termini –lotincha —inflation so'zdan olingan bo'lib —shishirilgan, bo'rttirilgan, —ko'pchigan degan ma'nolarni anglatadi.

Hozirda ro'y berayotgan inqiroz ta'sirida bir qator mamlakatlarda inflyatsiya kuchayib bormoqda. Misol uchun, may oyida O'zbekistonda yillik inflyatsiya darajasi 11% ga **yetdi**. BMT iqtisodchilarining prognoziga ko'ra, 2022- yilda, hattoki, AQSh dollarining inflyatsiya darajasi ham 6,7% ni tashkil qilishi **kutilmoqda**. Bu AQShda so'nggi 40 yil ichida kuzatilgan eng yuqori inflyatsiya ko'rsatkichi hisoblanadi. Ammo iqtisodiyoti

ECONOMY

unchalik kuchli bo'lmagan davlatlarda inflyatsiya ko'rsatkichlari qanday? Giperinflyatsiyani boshidan o'tkazayotgan valyutalarning ahvoli qanchalik yomon? Ushbu maqolamiz orqali yuqoridagi savollarga javab topamiz. Ushbu maqolada sizni turli mamlakatlardagi eng yuqori inflyatsiya ko'rsatkichlari bilan tanishtiradi.

Inflyatsiya — bu valyutaning qadrsizlanishi natijasida bozordagi mahsulotlar qiymatining osmonga ko'tarilish jarayonidir. Odatda, inflyatsiya davlat organlari tomonidan nazorat qilinadi, lekin ba'zida vaziyat nazoratdan chiqib ketishi mumkin va bu holatda giperinflyatsiya sodir bo'ladi.

Giperinflyatsiya quyidagi mezonlarga qarab aniqlanadi:

- 3 yil davomida har oyda narxlarning 2% ga oshishi;
- birdaniga bir oyning o'zida narxlarning 50% ga qadrsizlanishi;
- narxlarning yiliga 900% ga oshishi.

Giperinflyatsiya — rekordlar

Zimbabve (2007–2008; hozirgacha). Giperinflyatsiya holatiga yorqin misol qilib 2008-yildagi Zimbabve mamlakatini keltirish mumkin. Zimbabve o'z milliy valyutasini qabul qilganida uning qiymati 2 AQSh dollariga teng bo'lgan. Ammo mamlakatda iqtisodiy-ijtimoiy ahvol barqaror bo'lmaganligi uchun, valyuta qadrsizlanib borgan. 2008-yil noyabrida Zimbabvedagi oylik inflyatsiya ko'rsatkichi o'zining eng yuqori cho'qqisiga chiqib, 79 600 000 000% ni [tashkil qilgan](#). Mamlakatda narxlar har 25 soatda ikki baravarga oshavergan.



Foto: 100 trln Zimbabve dollari qiymatidagi banknota.

Vengriya (1945–1946). 1945-yil avgust — 1946-yil iyul oralig'ida Vengriyada inflyatsiya ko'rsatkichi kuniga 207% ni tashkil qilgan. Bu davrda Vengriya milliy valyutasi — pengyo har 15 soat ichida ikki karra qadrsizlanavergan. Bir oy ichida yuz bergan maksimal inflyatsiya ko'rsatkichi 40 000 000 000 000 000% ni tashkil etgan.




Foto: 1 mlrd pengyolik banknota.

Yugoslaviya (1992–1994). Yugoslaviyada 1992-yil aprelidan 1994-yil yanvarigacha bo'lgan davr ichida milliy valyuta — dinar har kuni 65% ga qadsizlangan. O'sha davrda muomalada bo'lgan eng yirik nominalli banknota 500 mlrd yugoslav dinari edi. 1994-yilda inflyatsiya darajasi o'zining eng yuqori cho'qqisiga chiqadi va 116 546 000 000% ni tashkil qiladi.



Foto: 500 mlrd yugoslav dinari qiymatdagi banknota.

Turkiya (1990–2005). 1990-yildan boshlab turk lirasi tez sur'atlarda qadsizlana boshladi, bu esa butun mamlakat iqtisodiyotida uzoq muddatli retsessiyaga saabab bo'ldi. Faqat 2005-yilda hukumat inflyatsiyani 10% dan kamroq darajaga tushira oldi. Bundan tashqari, yangi turk lirasi joriy etildi va u 1 mln eski liraga almashtirildi (1 yangi lira = 1 mln eski lira).

Gruziya (1993–1995). Gruziyada sovet pul tizimi yo'q qilingandan so'ng yangi pul birligi — lari muomalaga kiritildi. Biroq, 1993 yildagi inflyatsiya natijasida uning qiymati 1000 barobarga qadsizlandi. 1993- yili Gruziya prezidenti Eduard Shevardnadze yangi lari joriy etilishini e'lon qildi va eskilari 1:1 000 000 kursi bo'yicha almashtirildi (1 yangi lari = 1 mln eski lari).

Peru (1984–1990). 1984 -yildagi inflyatsiya Peru tarixidagi eng og'iri bo'ldi. Bir necha yil ichida bitta banknotaning maksimal nominal qiymati 5 000 dan 1 000 000 inti (Peruning 1985–1991 yillardagi milliy valyutasi) gacha oshdi. Peru hukumati milliy valyuta kursini faqat 1990 yilda barqarorlashtira oldi.

Braziliya (1985–1994). 1970- yilda Braziliyada inflyatsiya 15% dan 300% gacha o'sdi, ammo mamlakat iqtisodiyoti o'zining barqaror o'sishini saqlab qoldi. 1985- yilda hukumat mamlakatning moliyaviy ahvolini bir xil darajada ushlab tutolmadi va giperinflyatsiya ko'rsatkichi allaqachon 2000% ga yetgan edi. Bir nechta yangi banknotalar — kruzeiro, kruzado, real kruzeiro va realni joriy etish orqali valyuta kursini tuzatish choralari ko'rildi. 1994- yildagi bir qancha devalvatsiyalar amalga oshirildi, deflyatsiya (narxning pasayishi) uchun choralar ko'rilgach, inflyatsiyani xalqaro standartlar darajasiga tushirish imkoni paydo bo'ldi.

Hozirgi kunlar. Hozirda ham bir nechta mamlakatlarda giperinflyatsiya kuzatilmoqda. Quyida iqtisodiyotida eng og'ir holatlar kuzatilayotgan mamlakatlar keltiriladi.

Venesuela. Eng yirik neft zaxiralari bo'lishiga qaramay, Venesuela bir necha o'n yillar davomida iqtisodiy qiyinchiliklarni boshdan kechirmoqda. AQShning Venesuela neft sektoriga qarshi qo'llagan sanksiyalari inqirozni yanada kuchaytirdi. Oxirgi 9 yilda Venesuela iqtisodiyoti 80 foizga qisqardi, milliy valyuta esa 99 foizga o'z qiymatini yo'qotdi. Venesuela milliy valyutasi — bolivarining yillik inflyatsiya ko'rsatkichi 686% ga teng bo'lmoqda.

Sudan. Sudanda inqiroz fuqarolar urushi va harbiy to'ntarishlar sababli yuzaga keldi va haligacha davom etmoqda. Uzoq vaqt davomida mamlakat AQSh sanksiyalari ostida edi. 2021- yil oktabr oyida beqarorlik, zo'ravonlik va ijtimoiy muammolar uchquni yuz berib, mamlakatda yana davlat to'ntarishi sodir bo'ldi. Sudan pul birligi — Sudan funting yillik inflyatsiya ko'rsatkichi 318% ga teng bo'lmoqda.

Livan. Livan iqtisodiyoti 2021- yilda 60% ga qisqardi. Hozirda mamlakat chuqur moliyaviy inqirozda, mamlakat Markaziy bankining barcha resurslari tugab bo'lgan. Aholining katta qismi qashshoqlik chegarasidan pastga tushib ketgan. Hukumatning xorijdan yoqilg'i va dori-darmon sotib olishga imkoniyati yo'q. Livan funting yillik inflyatsiya ko'rsatkichi 224% ga teng bo'lmoqda.

Suriya. Suriyada beshta xorijiy armiya ishtirok etayotgan uzoq muddatli harbiy mojaro davom etmoqda. Mamlakat deyarli parchalanib ketgan, u yerda yollanma jangarilar harakat qilmoqda, giyohvand moddalar

savdosi va terrorizm gullab-yashnamoqda. Suriya funtining yillik inflyatsiya ko'rsatkichi 139% ni tashkil qilmoqda.

Ushbu mamlakatlar qatoriga Zimbabve (2022- yildagi inflyatsiya ko'rsatkichi 61% ga teng), Turkiya (70% — Turkiyada so'nggi 20 yil ichidagi eng yuqori ko'rsatkich), Surinam (61%), Argentina (51%) kabilarni ham qo'shish mumkin.

Giperinflyatsiyaning yuzaga kelish sabablari va uning oqibatlari. Yiliga 2% dan oshmaydigan inflyatsiya normal holat hisoblanadi. Misol uchun, yevro yiliga o'rtacha 1% ga qadrsizlanmoqda, dollar esa 1,7% ga. Ammo 2020- yil bilan solishtirganda, dunyo bo'ylab 2021- yilda jami o'rtacha inflyatsiya ko'rsatkichi 3,4% ni tashkil qildi. Ammo nima sababga ko'ra inflyatsiya ko'rsatkichlari yuqorida ko'rsatilgani kabi rekord darajalargacha yetishi mumkin?

Zimbabve misolida ko'rib chiqadigan bo'lsak, mamlakat (sobiq Janubiy Rodeziya) 1980- yilda mustaqillikka erishgach (Buyuk Britaniyadan), hokimiyat tepasiga diktator Robert Mugabe keladi. Bir yil o'tib, Zimbabvedda mahalliy dollar paydo bo'ladi. Mamlakatda mustaqillikkacha bo'lgan davrda ko'plab britaniyalik fermerlar yashagan. Ammo prezident Mugabe mamlakatda bundan buyon oq tanli kolonizatorlarga joy yo'qligini aytib, ularning yerlarini mahalliy yersiz aholiga berish maqsadida britaniyaliklarning barcha yerlarini va chorvasini tortib olgan. Ular mamlakatni tark etishga majbur bo'lishgan. Bunday islohotdan keyin asosiy eksport qilinadigan tovarlar — tamaki, paxta va shakarqamishning hajmi birdan tushib ketgan. Qishloq xo'jaligi ortidan esa ularni qayta ishlaydigan sanoat ham qulaydi. Shaharlarda ochlik va ishsizlik avj oladi. Zimbabve hukumati muammo aholida pulning yo'qligida degan xulosaga keladi va cheklanmagan miqdorda pul bosib chiqara boshlaydi.

Sobiq Yugoslaviya mamlakatiga keladigan bo'lsak, ushbu mamlakat 1945-yildan 1992-yilgacha mavjud bo'lgan va 1970-yillargacha rivojlangan mamlakatlardan biri hisoblanib kelingan. Yugoslaviyada inflyatsiya har doim bo'lgan, ammo turli choralar orqali vaziyat unchalik og'ir ahvolga kelishiga yo'l qo'yilmagan. Ammo 1980 -yilda Yugoslaviya rahnamosi Tito Broz vafot etgach, mamlakatda fuqarolik urushi boshlanadi. 1980- yildan boshlab inflyatsiya ko'rsatkichlari keskin osha boshlaydi, 1983- yilga kelib esa inflyatsiya boshqarib bo'lmaydigan darajaga yetadi. Bunga bir nechta sabab bor edi:

- 1980-yillar oxirida Yugoslaviyaning eng rivojlangan hududi — Sloveniya mustaqillikka erishadi;
- Byurokratik apparat, shuningdek, armiyani ta'minlash uchun juda katta budget pullari sarflanadi — oqibatda mamlakat tashqaridan qarzlar ola boshlaydi;
- Mamlakatda fuqarolik urushi sababli qon to'kilayotgani uchun BMT Yugoslaviyaga savdo embargosini joriy qiladi. Bu o'zi shundoq ham jar yoqasida turgan mamlakat iqtisodiyoti uchun og'ir zarba bo'ladi.

Mamlakat qayerdandir pul olishi kerak edi, ohir-oqibat pul bosib chiqarish mashinalari ishga tushadi.

1993- yilda Yugoslaviyada har oyda 900 000 dona banknotalar bosib chiqarilib, fuqarolar qo'liga yetmasdan o'z qiymatini yo'qotgan. Birgina o'sha yilning o'zida mamlakat yalpi ichki mahsuloti 30 foizga, sarmoya va sanoat ishlab chiqarish sohasi 37 foizga qisqardi, ishsizlik esa 24,1 foizga oshdi.

1994- yilga kelib giperinflyatsiya darajasi eng yuqori cho'qqiga chiqqach, dinar pul birligi sifatidagi vazifasini yo'qotadi: bu vaqtda do'konlarda oziq-ovqat narxлари allaqachon nemis markalarida ko'rsatilgan.

Giperinflyatsiya oqibatlari:

- pullar o'zining asosiy xususiyatlarini yo'qotadi;
- narxlar keskin osha boshlashi;
- ommaviy bankrot, defolt holatining e'lon qilinishi;
- fuqarolarning pul jamg'arish imkoniyatidan mahrum bo'lishi;
- ishsizlikning ortishi;
- iqtisodiy tanazzullik;
- davlat moliya tizimining yemirilishi.

Xulosa qilib aytganda, ishlab chiqarish rivojlanishida yuzaga keladigan nomutanosibliklar sababli tovarlar va xizmatlar bahosining umumiy yoki to'xtovsiz o'sishi va natijada pul muomalasi qonunining buzilishi oqibatida pul birligining qadrsizlanishiga inflyatsiya deb aytiladi. Bugungi kunda har qanday darajadagi inflyatsiya salbiy jihatga ega degan fikr ommada mavjud bo'lib, aslini olganda inflyatsiyaning har qanday darajasi ham iqtisodiyot uchun zararli emas. Iqtisodiy o'sish uchun kam foizli barqaror inflyatsiya bu tabiiy jarayon. Past darajadagi inflyatsiya iqtisodiyotda qo'shimcha talab yaratishi orqali iqtisodiy o'sishga turtki beradi. Inflyatsiyaning umuman yo'q bo'lishi esa iqtisodiyotning o'sish sur'atini pasaytirib yuborishi mumkin. Shiddatli inflyatsiya kelgusida yuqori inflyatsiyaga olib kelib, iqtisodiyotni izdan chiqarishi mumkin. Shu nuqtayi nazardan past darajadagi barqaror inflyatsiya ijobiy hisoblanadi.

ADABIYOTLAR:

1. World Bank. „*Inflation, consumer prices (annual %)*“. databank.worldbank.org.
2. ↑ World Bank. „*Inflation, consumer prices (annual %)*“. data.worldbank.org.
3. ↑ World Bank. „*Consumer price index (2010 = 100)*“. data.worldbank.org.
4. ↑ United Nations Conference on Trade and Development. „*Consumer price indices, annual*“. unctad.org.
5. Kamolov D., Ismoilova D. *The impact of digitalization on the economy of Uzbekistan* // *Science technology&Digital Finance*. – 2023. – T. 1. – №. 4. – C. 301-30.
6. Kamolov D., Qilicheva R. *Small business development in Uzbekistan* // *Science technology&Digital finance*. – 2023. – T. 1. – №. 4. – C. 314-320.